

DEVELOPMENT OF SMALL HAND MOTORICS IN CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION

Matluba Egamberdiyeva

CSPU. 1st Year Master's Student

E.mail: egamberdiyevamatluba8@gmail.com

Phone number: 99.421.16.03

Dilnoz Mutalova

Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD). CSPU

dilnozam232@gmail.com

Abstract:

This article explores the methods and innovative games used to develop fine motor skills. Particularly, the development of fine motor skills directly influences the formation of intellectual, creative, and linguistic abilities. Pedagogical approaches, the Montessori method, didactic games, and modern technologies are analyzed in terms of their effectiveness in enhancing fine motor development. Additionally, the article examines legal and regulatory documents in the educational system of Uzbekistan and their application in practice.

Keywords: Fine motor skills, cognitive development, preschool education, Montessori method, didactic games, innovative technologies, physical development, intellectual skills, pedagogical methods, child psychology, age characteristics, educational standards.

Introduction

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNING MAYDA QO'L MOTORIKALARINI RIVOJLANTIRISH

Egamberdiyeva Matluba Komil qizi

CHDPU. 1-bosqich magistr talabasi

e.mail: egamberdiyevamatluba8@gmail.com

Telefon raqam: 99.421.16.03

Mutalova Dilnoz Abdurashidovna

p.f.f.d.(PhD). CHDPU

dilnozam232@gmail.com

Anotatsiya:

Ushbu maqolada mayda motorika, uning rivojlanishidagi metodik yondashuvlar va innovatsion o'yinlar tahlil qilinadi. Mayda qo'l motorikasining rivojlanishi bolalarning intellektual, ijodiy, va lingvistik ko'nikmalarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik metodlar, Montessori yondashuvi, didaktik o'yinlar va zamonaviy texnologiyalar orqali bolalarning mayda motorikasini rivojlantirishning samaradorligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning amaliyotga tatbiq etilishi bo'yicha tahlil beriladi.

Kalit so'zlar: mayda motorika, kognitiv rivojlanish, maktabgacha ta'lim, Montessori metodikasi, didaktik o'yinlar, innovatsion texnologiyalar, jismoniy rivojlanish, intellektual ko'nikmalar, pedagogik metodlar, bolalar psixologiyasi, yosh xususiyatlari, ta'lim standartlari

Аннотация:

В данной статье рассматриваются методические подходы и инновационные игры, направленные на развитие мелкой моторики. Особенно развитие мелкой моторики оказывает непосредственное влияние на формирование интеллектуальных, творческих и языковых навыков. Анализируются педагогические методы, методика Монтессори, дидактические игры и современные технологии, которые используются для повышения эффективности развития мелкой моторики. Также рассматриваются нормативно-правовые акты в системе образования Узбекистана и их применение на практике.

Ключевые слова: мелкая моторика, когнитивное развитие, дошкольное образование, методика Монтессори, дидактические игры, инновационные технологии, физическое развитие, интеллектуальные навыки, педагогические методы, психология детей, возрастные особенности, образовательные стандарты

KIRISH

Insonning har tomonlama rivojlanishi va jamiyatdagi muvaffaqiyati uning dastlabki yillarda shakllangan asosiy ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liqdir. Maktabgacha yosh davri esa nafaqat bola shaxsining psixologik, balki jismoniy rivojlanishida ham muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, mayda qo'l motorikasining rivoji bolalar faoliyatining ko'plab jihatlariga, jumladan, intellektual, ijodiy va lingvistik ko'nikmalarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.¹ Mayda motorikaning rivojlanishi nafaqat kundalik hayotda zarur bo'lgan amaliy harakatlarni shakllantirishni, balki bolalarning miyasida murakkab neyron aloqalarning paydo bo'lishini rag'batlantiradi. Ushbu jarayon nafaqat bolalarning mustaqilligi va o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi, balki ularning bilim olishga tayyorligini ta'minlaydi. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirishning metodik asoslari o'rganiladi. Pedagogik yondashuvlar, didaktik o'yinlar, innovatsion usullar va bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan mashqlar tizimi tahlil qilinib, ushbu yo'nalishning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish masalasi davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan sohalaridan biridir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4312-son qarorida maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash, bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko'rsatib o'tilgan.² Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"da bolalarning jismoniy rivojlanishi, jumladan, mayda motorika ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha aniq talablar belgilangan³. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning

¹ . Смирнова, Е. О. (2015). Развитие мелкой моторики у детей дошкольного возраста. Москва: Детство-Пресс.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti".

mayda qo‘l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish uchun mustahkam asos yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Italiyalik pedagog Mariya Montessori o‘zining ta’lim tizimida bolalarning qo‘l motorikasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Montessori metodikasining asosiy tamoyillaridan biri – bolalarning tabiiy rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olib, ularga mustaqil faoliyat uchun shart-sharoit yaratishdir.⁴ Uning fikriga ko‘ra, mayda motorika rivoji bolaning umumiy psixofizik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va bu, ayniqsa, maktabgacha yosh davrida dolzarb hisoblanadi. Montessori materiallaridan foydalanish orqali bolalar qo‘l va barmoqlarni mustahkamlovchi, harakatlarni nozik boshqarishga yordam beruvchi mashqlarni bajaradilar. Masalan, tugmalarni ulash, qumni elash, mozaikalar bilan ishlash va ipga boncuklar tizish kabi faoliyatlar bolaning diqqatni jamlash, o‘z-o‘zini boshqarish va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Montessori metodining asosiy vositalari:

Sensor materiallar: Mayda motorika va sezgi organlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan maxsus qurilmalar.

Qo‘l ishlari: Tugmalarni mahkamlash, tugmalarni yechish va bog‘lash, ip o‘rash, boncuk tizish va boshqa mashg‘ulotlar.

Ijodiy faoliyat: Chizish, bo‘yash, qirqish kabi amaliy mashg‘ulotlar.

Tabiat elementlari bilan ishlash: Tabiiy materiallarni (masalan, qum yoki suv) o‘rganish va ularni boshqarish orqali bolalarning sezgi va harakatlarini muvofiqlashtirish.

Montessori metodining ahamiyati shundaki, u bolaga o‘z rivojlanishining subyekti sifatida qaraydi va uning o‘ziga xos qobiliyatlarini ochib berishga yordam beradi. Uning metodikasi bolalarning tabiiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan, shuningdek, ularning o‘z-o‘zini boshqarish va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy olimlar

⁴ Montessori, M. "The Montessori Method". Cambridge: Cambridge University Press, 1912.

tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa Montessori yondashuvini yanada boyitib, uni milliy pedagogik tizim bilan uyg'unlashtiradi. Shu bilan birga, har ikkala yondashuv bolalarning umumiy intellektual va psixologik rivojlanishiga mustahkam asos yaratadi.

O'zbekistonlik olimlar orasida bolalarning qo'l motorikasini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar e'tiborga loyiqdir. Misol uchun, Karimova Nafisa Rahimovna tomonidan bolalar psixologiyasi va rivojlanishiga bag'ishlangan ilmiy ishlar bolalar motorikasini shakllantirish jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Karimovanning fikriga ko'ra, bolalarning qo'l motorikasini rivojlantirish faqatgina jismoniy mashqlarga emas, balki ular orqali kognitiv va kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishga ham qaratilgan bo'lishi kerak.⁵

Uning yondashuvi quyidagilarga asoslangan:

Didaktik o'yinlar: Masalan, kubiklarni joylashtirish, geometrik shakllarni to'g'ri joylarga qo'yish orqali bolaning analitik fikrlashi va mayda motorikasi bir vaqtda rivojlanadi.

Amaliy mashqlar: Qo'l va barmoqlarni harakatlantiruvchi maxsus jismoniy faoliyatlar, masalan, plastilin yoki loy bilan ishlash.

Innovatsion texnologiyalar: Interaktiv ta'lim materiallari yordamida bolaning diqqatini jamlash va nozik harakatlarini rivojlantirish.

METODOLOGIYA

MUHOKAMA

Mayda qo'l motorikasini rivojlantirishda o'yinlar va metodik yondashuvlar katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limda mayda motorikani rivojlantirishda qo'llaniladigan o'yinlar nafaqat bolalar uchun qiziqarli bo'lishi, balki ularning aqliy, psixologik va jismoniy rivojlanishiga ham hissa qo'shishi kerak. Bugungi kunda turli pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida mayda motorikaning rivojlanishiga ta'sir o'tkazadigan samarali metodlar va o'yinlar ishlab chiqilgan.

1.Montessori metodidan foydalanish

⁵ Karimova N.R. "Bolalarning psixologik rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati". Toshkent: Fan, 2020.

Mariya Montessori metodikasi bolalarda mayda motorikani rivojlantirish uchun keng qo'llaniladi. Montessori metodida bolalar uchun maxsus materiallar va mashqlar ishlab chiqilgan. Ushbu metodikada boshliqlik qiluvchi mashqlar barmoq va qo'l mushaklarini o'zaro ishlatishga asoslangan. Misol uchun:

Tugmalarni bog'lash va yechish: Bu mashqlar bolalarning qo'l va barmoq mushaklarini, koordinatsiyasini va diqqatini rivojlantirishga yordam beradi.

Plastilin yoki loy bilan ishlash: Ushbu mashqlar bolalarga qattiq va yumshoq materiallar bilan ishlashni o'rgatadi, bu esa motorikani rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

2. Sensor-fizik Faoliyatlar

Qum bilan ishlash: Qumda o'ynash, qumdan shakllar yasash, qumni qo'l bilan tarqatish orqali bolalar mayda motorikani rivojlantiradilar.

Suv bilan o'ynash: Suvda qoliplarni ishlatish, suyuqliklarni to'kish, aralashtirish va boshqa faoliyatlar bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki foydali hamdir.

Xom-ashyo materiallari: Qog'oz, to'qimachilik materiallari bilan ishlash ham qo'l motorikasini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Koordinatsiya va Diqqatni Jamlash O'yinlari

Shakllarni yig'ish va joylashtirish: Bolalarga geometrik shakllarni to'g'ri joylashtirish, moslashtirish yoki kichik jismonlarni yig'ish kabi mashqlar bolaning qo'l mushaklari va koordinatsiyasini rivojlantiradi.

Bonchuklar bilan o'ynash: Bonchuklarni ipga tortish yoki boshqa harakatlar orqali bolalar nozik motorikani rivojlantiradilar.

Labirintlar va shakllarni to'ldirish: Kichik yoshdagi bolalar uchun labirintlarni o'tkazish yoki qalam bilan shakllarni to'ldirish mashqlari diqqatni jamlash va qo'l harakatlarini aniq bajarishni o'rgatadi.⁶

⁶ . Smith, A., & White, J. "Fine Motor Skills Development in Early Childhood Education". Early Childhood Research Quarterly, 2017.

4. Innovatsion Texnologiyalarni Qo'llash

Interaktiv ekranda o'ynash: Ekranda shakllarni, ranglarni, harakatlarni aniqlash va interaktiv ilovalar orqali bolalar motorikani rivojlantiradilar.

Sensorli ekranli o'yinlar: Sensorli ekranlarda turli interaktiv o'yinlarni o'ynash orqali bolalar nafaqat motorikani, balki kognitiv ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

XULOSA

Mayda qo'l motorikasini rivojlantirish bolalarning jismoniy, kognitiv va emotsional rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni shakllantirish bolalar uchun eng muhim o'quv va rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi bolaning diqqatini, tafakkurini va o'zini ifodalash qobiliyatini oshiradi, shuningdek, uning ijodiy va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Montessori metodikasi, sensor-fizik faoliyatlar, innovatsion texnologiyalar va boshqa zamonaviy metodlar yordamida bolaning motorikasi samarali tarzda rivojlantirilishi mumkin. Shu bilan birga, o'yinlar va interaktiv mashqlar bolalar uchun eng qiziqarli va samarali usul bo'lib, ular yordamida bolalar o'quv jarayoniga faollik bilan jalb qilinadi. O'quvchilarning mayda motorikasi rivojlanishi nafaqat ta'lim tizimining asosiy qismi, balki bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatiga ham tayanadigan poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Смирнова, Е. О. (2015). Развитие мелкой моторики у детей дошкольного возраста. Москва: Детство-Пресс.
2. Montessori, M. "The Montessori Method". Cambridge: Cambridge University Press, 1912
3. Karimova N.R. "Bolalarning psixologik rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati". Toshkent: Fan, 2020.
4. Smith, A., & White, J. "Fine Motor Skills Development in Early Childhood Education". Early Childhood Research Quarterly, 2017.